4299990
620121

**Internet tarmog'ida mijozning**
**Web-saytini va u bilan bog'liq fayllarni**
**joylashtirish xizmatlarini taqdim etish uchun**
**ShARTNOMA**
**№ 33/16-GH**

O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh.,
6 января 2022 y.

**«UZINFOCOM davlat axborot tizimlarini yaratish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha yagona integrator» MChJ** nomidan Bosh direktor o'rinbosari E.R. Ishimbaev 2022 yil 5 yanvardagi 1–son ishonchnoma asosida faoliyat yurituvchi, bundan keyin Bajaruvchi deb ataluvchi bir tomondan, va

Саноат хавфсизлиги давлат қўмитаси Б.В. Гулямов nomidan низом

bundan keyin Buyurtmachi deb ataluvchi, ikkinchi tomondan, keyingi o'rinlarda Tomonlar deb ataluvchilar, ushbu Shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar

## 1. ShARTNOMA PREDMETI

1.1. Bajaruvchi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-sentabrdagi PQ-3953-son qarori bilan belgilangan ustav vazifalarini bajarish maqsadida 4-bandida "Muqaddam tuzilgan shartnomalar bo'yicha yetkazib beruvchilardan aloqa xizmatlari, internet va teleradioeshittirish xizmatlarini sotib olish" (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-dekabrdagi PQ-4544-son qarori tahririda), ko'rsatilgan, sotib olish davlat buyurtmachilari tomonidan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha amalga oshiriladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ro'yxatini tasdiqladi. Buyurtmachiga mijozning veb-sayti va tegishli fayllarni (keyingi o'rinlarda - Xizmatlar) Internet tarmog'iga joylashtirish xizmatlarini ko'rsatadi va Buyurtmachi ulardan ushbu Shartnomaga asosan va Bajaruvchining veb-saytida (www.dc.uz) taqdim etilgan Ommaviy ofertaga muvofiq foydalanadi.

1.2. Bajaruvchi Buyurtmachiga tanlangan GH-3 tarif rejasiga muvofiq mijozning veb-saytini va tegishli fayllarni Internetda joylashtirish xizmatini taqdim etadi, bundan keyin Xizmatlar va Buyurtmachi ulardan ushbu Shartnomada ko'rsatilgan abonent to'loviga muvofiq foydalanadi. Shartnoma va Ommaviy oferta Bajaruvchining veb-saytida (www.dc.uz) taqdim etilgan.

1.3. Bir vaqtning o'zida Buyurtmachiga GH-1 tarif rejasiga muvofiq Kompyuterlashtirish va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini rivojlantirish muvofiqlashtirish kengashining 2012 yil 24 fevraldagi 32-son qarori asosida bepul asosda xizmatlar taqdim etiladi.

1.4. Xizmatlar deganda Buyurtmachiga:

1.4.1. Bajaruvchining serverlarida o'z axborotini joylashtirish imkonini beradigan noyob nomi va paroli;

1.4.2. Foydalaniladigan domenlar DNS nomlarining birlamchi va ikkilamchi serverlarini qo'llab-quvvatlash.

## 2. XIZMATLAR NARXI VA HISOB-KITOBLAR TARTIBI

2.1. Ushbu shartnomaning 1-chorak umumiy miqdori QQS siz **135000,00 (bir yuz o'ttiz besh ming)** so'mni tashkil etadi. Shartnomaning umumiy miqdori bo'yicha xar oylik to'lov QQS siz **45000,00 (qirq besh ming)** so'mni tashkil qiladi.

2.2. Buyurtmachi shartnoma umumiy bahosining **30%ni**, shartnomani Moliya vazirligi G'aznachiligi ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab 5 (besh) bank ish kuni muddatida

**ДОГОВОР**
**на предоставление услуги по размещению**
**в сети Интернет Web-сайта клиента**
**и связанные с ним файлов**
**№ 33/16-GH**

Республика Узбекистан, г. Ташкент,
6 января 2022 г.

**ООО «Единый интегратор по созданию и поддержке государственных информационных систем UZINFOCOM»,** именуемый в дальнейшем Исполнитель, в лице Заместителя генерального директора Ишимбаева Э.Р., действующего на основании Доверенности №1 от 05.01.2022 г., с одной стороны, и

Комитет промышленое безопасностье в лице Б.В. Гулямов положения

именуемого в дальнейшем Заказчик, с другой стороны, именуемые в дальнейшем Стороны, заключили настоящий Договор о нижеследующем:

## 1. ПРЕДМЕТ ДОГОВОРА

1.1. Исполнитель во исполнение уставных задач, определенных Постановлением Президента Республики Узбекистан от 27 сентября 2018 года № ПП-3953 утверждён Перечень товаров (работ, услуг), закупка которых осуществляется государственными заказчиками по прямым договорам в пункт 4 которого значится: «закупка услуг связи, интернета и телерадиовещания у поставщиков ранее заключенных договоров», (изложенный в редакции постановления Президента Республики Узбекистан от 5 декабря 2019 года № ПП-4544) предоставляет услуги по размещению в сети Интернет Web-сайта клиента и связанные с ним файлов Заказчику, (далее Услуги), а Заказчик пользуется ими в соответствии с настоящим Договором и Публичной офертой, представленными на сайте Исполнителя (www.dc.uz).

1.2. Исполнитель предоставляет Заказчику услугу по размещению в сети Интернет Web-сайта клиента и связанные с ним файлов, (в соответствии с выбранным тарифным планом GH-3, далее Услуги, а Заказчик пользуется ими в соответствии абонентской платой, определенной с настоящим Договором и Публичной офертой, представленным на сайте Исполнителя (www.dc.uz).

1.3. Одновременно Заказчику предоставляется услуги в соответствии с тарифным планом GH-1 на безвозмездной основе на основании Решения №32 Координационного Совета по развитию компьютеризации и ИКТ от 24 февраля 2012 года.

1.4. Под услугами понимается предоставление Заказчику:

1.4.1. Уникального имени и пароля, позволяющих ему размещать свою информацию на серверах Исполнителя;

1.4.2. Поддержку первичного и вторичного сервера имён DNS используемых доменов.

## 2. СТОИМОСТЬ УСЛУГ И ПОРЯДОК РАСЧЕТОВ

2.1. Общая сумма на 1-ый квартал составляет **135000,00 (сто тридцать пять тысяч)** сум без НДС. Сумма ежемесячной платы от общей стоимости Договора составляет **45000,00 (сорок пять тысяч)** сум без НДС.

2.2. Заказчик в течении 5-ти (пяти) банковских дней, после регистрации договора в Казначействе Министерства Финансов, перечисляет на расчетный счет

Bajaruvchining hisob raqamiga oldindan o'tkazib beradi. Bu esa QQS siz **40500,00 (qirq ming besh yuz)** so'mni tashkil etadi.
2.3. Shartnoma oylik to'lovining **70%** miqdorini Buyurtmachi tomonidan hisob-faktura berilgan kundan boshlab, 5 (besh) bank kuni mobaynida Bajaruvchining hisob raqamiga o'tkazib beriladi, ya'ni, Xizmat ko'rsatilgandan so'ng.

2.4. Bajaruvchining hisob raqamiga dastlabki to'lov kelib tushgan sana xizmatlar ko'rsatishni boshlash sanasi hisoblanadi.

## 3. TOMONLAR HUQUQLARI VA MAJBURIYaTLARI

3.1. Bajaruvchi quyidagi majburiyatlarga ega:

3.1.1. Buyurtmachiga ushbu Shartnomaga muvofiq Xizmatlarni taqdim etish.
3.1.2. Xizmatlarni taqdim etish tartibidagi bo'ladigan o'zgartirishlar, shuningdek tariflardagi boshqa o'zgartirishlar to'g'risida o'zining rasmiy www.dc.uz saytida bu o'zgartirishlar kuchga kirishidan 10 (o'n) kun oldin xabarlarni chiqarish;
3.2. Buyurtmachi:
3.2.1. ushbu Shartnomada, Ommaviy ofertada bayon qilingan talablarni, shuningdek www.dc.uz saytidagi «Xizmatlar» bo'limida joylashgan xosting va elektron pochta xizmatlaridan foydalanish qoidalarini bajarish;
3.2.2. ishonib topshirilgan pochta manzilini bir kunda kamida bir marta tekshirish, shuningdek Internet tarmog'idagi www.dc.uz manzil bo'yicha Bajaruvchining rasmiy saytiga muntazam (haftasiga kamida bir marta) kirish va Xizmatlarni taqdim etishdagi har qanday o'zgarishlar borligidan xabardor bo'lish majburiyatlariga ega.

## 4. TOMONLAR JAVOBGARLIGI VA NIZOLARNI HAL QILISh TARTIBI

4.1. Bajaruvchi Buyurtmachi yoki foydalanuvchilar tomonidan yaratiladigan va qo'llab-quvvatlanadigan axborot uzellarining tarkibi uchun javobgar emas va hech qanday dastlabki senzurani amalga oshirmaydi, ammo O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga zid keladigan axborotni saqlaganligi va tarqatganligi uchun tegishli resurslar ogohlantirishdan keyin uzib qo'yilishi mumkin. Qonun hujjatlari oshkora buzilgan holda Xizmatlarning taqdim etilishi dastlabki ogohlantirishsiz to'xtatib qo'yilishi mumkin. Bunda Bajaruvchi zarur bo'lganda Buyurtmachi axborot resurslarining tarkibini nazorat qilish huquqini o'zida saqlab qoladi.
4.2. Ushbu Shartnoma, ommaviy ofertaning bajarish davomida tomonlar o'rtasida yuzaga keladigan barcha nizolar yoki munozaralar muzokaralar yo'li orqali hal qilinadi. Nizolarni muzokaralar orqali hal qilish imkoni bo'lmagan holda ular O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq tumanlararo iqtisodiy sudda ko'rib chiqilishi kerak.
4.3. Ushbu Shartnomada ko'zda tutilmagan barcha qolgan hollarda Tomonlar Shartnoma bo'yicha o'z zimmasiga qabul qilingan majburiyatlarning buzilganligi uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

## 5. AXBOROT XAVFSIZLIGI VA MA'LUMOTLARNING BUTUNLIGINI TA'MINLASh

5.1. Bajaruvchi har doimgi shartlar bilan belgilanadigan chegaralarda o'z serverlarining bazaviy axborot xavfsizligi (**fayrvollarni sozlash, potensial xavfli bo'lgan PHP funksiyalarni o'chirish va dasturiy ta'minotni o'z vaqtida yangilash**)ni ta'minlaydi, agar Shartnoma (Ommaviy oferta)da boshqasi ko'rsatilmagan bo'lsa.
5.2. Bajaruvchi mijozlarning serverdagi elektron pochtasining tarif rejasida belgilangan kvota chegarasida saqlanishini ta'minlaydi.

Исполнителя сумму предоплаты размере **30 %** от общей стоимости работ, что составляет **40500,00 (сорок тысяч пятьсот)** сум, без НДС.
2.3. Последующие оплаты по Договору в размере **70%** от ежемесячной стоимости Услуги настоящего Договора, перечисляется Заказчиком на расчетный счет Исполнителя в течении 5-ти (пяти) банковских дней после предоставления Исполнителем счет–фактуры.

2.4. Датой начала оказания услуг считается дата поступления предоплаты на расчётный счёт Исполнителя.

## 3. ПРАВА И ОБЯЗАННОСТИ СТОРОН

3.1. Исполнитель обязуется:

3.1.1. предоставлять Заказчику Услуги в соответствии с настоящим Договором.
3.1.2. выставлять уведомления о предстоящих изменениях в порядке предоставления Услуг, а также других изменениях в Тарифах, на своем официальном сайте www.dc.uz за 10 (десять) дней до вступления изменений в силу.
3.2. Заказчик обязуется:
3.2.1. выполнять требования, изложенные в настоящем Договоре, Публичной оферте, а также, и правил пользования услугами хостинга и электронной почты, расположенными на сайте www.dc.uz в разделе «Услуги»;
3.2.2. проверять доверенный почтовый адрес не менее раза в день, а также регулярно (не менее одного раза в неделю) посещать официальный сайт Исполнителя в сети Интернет по адресу www.dc.uz и осведомляться о наличии любых изменений в предоставлении Услуг.

## 4. ОТВЕТСТВЕННОСТЬ СТОРОН И ПОРЯДОК РАЗРЕШЕНИЯ СПОРОВ

4.1. Исполнитель не несет ответственности за содержание информационных узлов, создаваемых и поддерживаемых Заказчиком или пользователями, и не осуществляет какой-либо предварительной цензуры, однако, в случае если хранение и распространение такой информации, противоречащей законодательству РУз, соответствующие ресурсы могут быть после предупреждения отключены. В случае явного нарушения законодательства предоставление Услуг может быть приостановлено без предварительного предупреждения. При этом Исполнитель оставляет за собой право при необходимости контролировать содержание информационных ресурсов Заказчика.

4.2. Все споры или разногласия, возникающие между сторонами в ходе исполнения настоящего Договора, Публичной оферты решаются путем переговоров. В случае невозможности разрешения разногласий путем переговоров они подлежат рассмотрению в межрегиональном экономическом суде в соответствии с законодательством Республики Узбекистан.
4.3. Во всех остальных случаях, не предусмотренных настоящим договором, Стороны несут ответственность за нарушение принятых на себя обязательств по Договору в соответствии с действующим законодательством Республики Узбекистан.

## 5. ОБЕСПЕЧЕНИЕ ИНФОРМАЦИОННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ И ЦЕЛОСТНОСТИ ДАННЫХ

5.1. Исполнитель обеспечивает **базовую (настройка файрволов, отключение потенциальных опасных PHP функции и своевременное обновление программного обеспечения)** информационную безопасность своих серверов в пределах, определяемых обычными условиями, если только в Договоре (в Публичной оферте) явно не оговорено иное.
5.2. Исполнитель обеспечивает хранение электронной почты клиентов на сервере в пределах квоты, установленной тарифным планом.

5.3. Bajaruvchi pochtadan fayllarni uzatish uchun foydalanilganda pochta xabarlarini normal holatda olish, ularni qayta ishlash, saqlash va jo'natishni kafolatlamaydi.

5.3. Исполнитель не гарантирует нормальное получение, обработку, хранение и отправку почтовых сообщений при использовании почты для передачи файлов.

## 6. ShARTNOMALARNING AMAL QILISh MUDDATI VA BEKOR QILISh TARTIBI

6.1. Ushbu shartnoma G'aznachilikda ro'yxatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi va 2022 yil 31 dekabrgacha amal qiladi.

6.2. Ushbu Shartnomadagi shartlar va majburiyatlar bajarilmaganligi sharti bilan, shuningdek O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan asoslar bo'yicha Shartnomaning amal qilishi Tomonlar tarafidan to'xtatilishi mumkin. Ushbu shartlar bo'lmagan holda shartnomaning amal qilishi avtomatik ravishda keyingi kalendar' yiliga uzaytirilishi mumkin.

## 6. СРОК ДЕЙСТВИЯ И ПОРЯДОК РАСТОРЖЕНИЯ ДОГОВОР

6.1. Настоящий договор вступает в силу с момента регистрации в Казначействе и действует **до 31.12.2022 г.**

6.2. Действие Договора может быть прекращено Сторонами при условии невыполнения условий и обязанностей настоящего Договора, а также по основаниям, предусмотренным в законодательстве Республики Узбекистан. В случае отсутствия данных условий действие договора автоматически пролонгируется на следующий календарный год.

## 7. ФОРС-МАЖОР

7.1. Tomonlar, agar Shartnoma shartlarini bajarmaslik ushbu Shartnoma tuzilgandan keyin yuzaga kelgan suv toshqini, yong'in, zilzila va boshqa tabiiy ofatlar, embargo, urush yoki harbiy harakatlar kabi holatlarning oqibati hisoblansa, ushbu Shartnoma bo'yicha o'z zimmasiga olingan majburiyatlarini to'liq yoki qisman bajarmagani uchun javob bermaydi. Agar bu holatlarning istalgani majburiyatlarning ushbu Shartnomada belgilangan muddatda bajarilishiga bevosita ta'sir ko'rsatsa, u holda bu muddat tegishli holatning amal qilgan vaqtiga mutanosib ravishda kechiktiriladi.

7.2. Yuqoridagi holatlarning boshlanishi, ko'zda tutilgan amal qilish muddati va to'xtatilishi to'g'risidagi majburiyatni bajarish imkonsizligi yuzaga kelgan Tomon ular yuzaga kelgan va to'xtatilgan paytdan boshlab 10 (o'n) kalendar' kundan kechiktirmay bu haqda boshqa Tomonni yozma ravishda xabardor qilishga majburdir.

## 7. ФОРС-МАЖОР

7.1. Ни одна из Сторон не будет нести ответственность за полное или частичное неисполнение любого из своих обязательств по настоящему Договору, если неисполнение будет являться следствием таких обстоятельств, как наводнение, пожар, землетрясение и другие стихийные бедствия, эмбарго, война или военные действия, возникших после заключения настоящего Договора. Если любое из таких обстоятельств непосредственно повлияет на исполнение обязательства в срок, установленный в настоящем Договоре, то этот срок соразмерно отодвигается на время действия соответствующего обстоятельства.

7.2. Сторона, для которой создалась невозможность исполнения обязательства, о наступлении, предполагаемом сроке действия и прекращении вышеуказанных обстоятельств, обязана не позднее 10 (десяти) календарных дней с момента их наступления и прекращения, в письменной форме уведомить об этом другую Сторону.

## 8. BOShQA ShARTLAR

8.1. Ushbu Shartnoma Tomonlarning har biri uchun bitta nusxadan ikki nusxada tuzilgan, bu nusxalarning har biri teng qiymatli yuridik kuchga ega.

8.2. Ilovalar ushbu Shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.

8.3. Bajaruvchi tariflarni o'zgartirish, ko'rsatiladigan xizmatlar uchun to'lovlarni o'zgartirish huquqini o'zida qoldiradi, bu haqda o'zgartirishlar kuchga kirishidan 10 (o'n) kun oldin o'zining rasmiy saytida e'lon qiladi.

8.4. Shartnomada sanab o'tilmagan xizmatlar uchun, shuningdek ushbu Shartnomani bajarishning alohida shartlarida qo'shimcha kelishuvlar imzolanadi.

## 8. ПРОЧИЕ УСЛОВИЯ

8.1. Настоящий Договор составлен в двух экземплярах, по одному для каждой из Сторон, каждый из которых имеет равнозначную юридическую силу.

8.2. Приложения являются неотъемлемой частью настоящего договора.

8.3. Исполнитель оставляет за собой право изменять тарифы, оплаты за оказываемые услуги, объявляя об этом на своем официальном сайте за 10 (десять) дней до вступления изменений в силу

8.4. На услуги, не перечисленные в Договоре, а также при особых условиях выполнения данного Договора, подписываются дополнительные соглашения.

## 9. XIZMAT TARIF REJASI

9.1. Tanlangan tarif rejasi:

## 9. ТАРИФНЫЙ ПЛАН УСЛУГИ

9.1. Выбранный тарифный план.

| **Tarif rejasining nomi:** | GH-3 | **Наименование тарифного плана** | GH-3 |
|---|---|---|---|
| **Domen nomi:** | scis.uz | **Доменное имя** | scis.uz |

9.2. Buyurtmachida xizmatlardan foydalanishda savollar va muammolar kelib chiqqan holda barcha so'rovlar Bajaruvchining texnik xizmatiga quyidagi telefon raqamlari, faks yoki elektron pochta orqali yuborilishi kerak:

Telefon: 998 (71) 238-4238
Faks: 998 (71) 238-4248
E-mail: abonent@uzinfocom.uz

*Abonent bo'limining ish rejimi 9:00 dan 18:00 gacha, shanba va yakshanba – dam olish kunlari.*

9.3. Buyurtmachi nomidan bog'lanadigan shaxs:________________________

Телефон: 71 244-24-13

E-mail: ________________________

9.2. В случае возникновения у Заказчика вопросов и проблем при использовании услуг все запросы должны направляться в техническую службу Исполнителя по телефону, факсу или электронной почте:

Tel: 998 (71) 238-4238
Fax: 998 (71) 238-4248
E-mail: abonent@uzinfocom.uz

*Режим работы абонентского отдела с 9:00 до 18:00, суббота и воскресенье – выходные дни.*

9.3.Контактное_лицо_от_Заказчика:

________________________

Телефон: 71 244-24-13

E-mail: ________________________

**10. TOMONLAR MANZILI VA REKVIZITI**

**Bajaruvchi**

**«UZINFOCOM davlat axborot tizimlarini yaratish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha yagona integrator» MChJ**

Yuridik manzil: Navoi 28B k.
100011 Tashkent, Uzbekiston
Vebsayt: www.dc.uz
Bank rekvizitlari:
x/r 20208000904198204001
TGF AKB «Kapital bank
MFO 00445 STIR 204118319
OKED 62090 QQS 3260 5000 7508

**Bosh direktor o'rinbosari**

_________________ / **Ishimbaev E.R./**

**Buyurtmachi**

Б.В. Гулямов ________________:

________/ ____________/

Юрист

**10. АДРЕСА И РЕКВИЗИТЫ СТОРОН**

**Исполнитель**

**ООО «Единый интегратор по созданию и поддержке государственных информационных систем UZINFOCOM»**

Юридический адрес: ул. Навои 28В
100011 Ташкент, Узбекистан
Вебсайт: www.dc.uz
Банковские реквизиты:
р/с 20208000904198204001
ТГФ АКБ «Капитал банк
МФО 00445 ИНН 204118319
ОКЭД 62090 НДС 3260 5000 7508

**Заместитель генерального директора**

_________________ /**Ишимбаев Э.Р./**

**Заказчик**

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
САНОАТ ХАВФСИЗЛИГИ ДАВЛАТ ҚЎМИТАСИ
Х/р: 1000108602627770442100290001
ИНН: 200936657 ОКЭД: 84111
ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ МОЛИЯ ВАЗИРЛИГИ ГАЗНАЧИЛИГИ
ХККМ МББ Тошкент шахар
Х/р: 2340 2000 3001 0000 1010
МФО: 00014 ИНН: 201 122 919

Б.В. Гулямов ________________:

________/ ____________/

Юрист